

MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINING MODELLARI VA TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK O'RNI

Pardayev Sherzod Mamasharipovich.

Sherzodpardayev84@gmail.com. Jizzax davlat

*pedagogika instituti "Ta'limda raqamli texnologiyalar"
kafedra katta o'qituvchisi*

*Sindarov Sadriddin Qarshiboyevich Jizzax davlat
pedagogika instituti "Ta'limda raqamli texnologiyalar"
kafedra o'qituvchisi*

*Pardayeva Moxira Jizzax davlat pedagogika instituti
magistranti*

Anatatsiya Hozirgi zamon ta'lim tizimida hukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim, tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirish, yangi ta'lim samradorligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida noan'anaviy, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda dars o'tish davr talabidir. Dars samaradorligini oshirishda o'qituvchi avvalo maqsad belgilab olishi, noan'anaviy va an'anaviy darslarning farqini ko'ra olishi shart.

Kalit so'zlar: Informatika, texnologiya, tarmoq, Virtual reallik, kengaytirilgan reallik, aralash reallik, kompyuter, klaster, Interfaol, diagramma, displey.

MT –bu o'rganuvchining ma'lum ilmiy to'siqqa etishish va uni tasdiqlashni amalga oshiruvchi, ya'ni uning mehnat va ijodiy faoliyatining asosi bo'lib qoluvchi tizim.

Masofaviy ta'lim tizimi (MTT) asosiga an'anaviy ta'lim texnologiyalari bilan birga, talaba uchun maxsus ishlab chiqilgan elektron o'quv materiallari, qo'llanmalar, audio va video resurslardan virtual axborot ta'lim darajasida mustaqil foydalanishi qo'yilgan.

MTT axborot –ta'lim muhiti (ATM) axborot resurslari, qaydnomalarning o'zaro munosabati, amaliy –dasturiy va tashkiliy –uslubiy ta'minot ma'lumotlarini uzatish vositalarining tizimli –tashkiliy majmuidir.

Masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanuvchi chet el o'quv muassasalari faoliyati taxlili quyidagi tashkiliy va texnologik xususiyatlarini ko'rsatishga ruxsat beradi: ta'limning uzluksizligi; o'quv jarayonini olib borishda ochiqlik va alohida e'tibor; etakchi oliy o'quv yurti bazasida masofaviy ta'lim markazi va maydon jihatidan uzoqlashtirilgan o'quv –konsultatsiya markazlarining markazlashuvi yo'nalishlar bo'yicha tinglovchilarga birlashtirilgan o'qituvchi konsultatsiyalarning shay turishi.

SHu bilan birga masofaviy ta'limning keng tarqalgan modeli keltirib chiqarilgan bular: tarqalgan sinflar modeli; mustaqil ta'lim modeli va ochiq ta'lim modeli sinf.

Tarqalgan sinf modeli bevosita interaktiv telekommunikatsiya texnologiyalar bitta sinfga mo'ljallangan kursni, turli joylardagi talabalarga tarqatadi. Masalan: an'anaviy va masofaviy o'qitiladigan talabalardan iborat aralash sinf. O'quv muassasasi va dekanat o'zlashtirishni nazorat qiladi.

Mustaqil ta'lim (o'rganish) modeli talabalarni ma'lum vaqtda ma'lum erda turish vazifasidan ozod qiladi. Talaba kurs bayoni va batafsil dasturni o'z ichiga olgan materiallar majmui bilan ta'minlanadi va rahbarlik qiluvchi, savollarga javob beruvchi va ishni baholovchi fakultet xodimi bilan suhbatlashish imkonini qo'lga kiritadi. Talaba va uslubiyotchi – aloqasi telekommunikatsiya texnologiyalar, kompyuter konferensiyalari, elektron va oddiy pochta orqali amalga oshiriladi.

Ochiq ta'lim sinf modeli kurs bayonini chop etilgan tarzda yoki boshqa vositalar (masalan, video yozuv yoki kompyuter disklari) yordamida foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu esa talabaning guruhdagi boshqa talabalar bilan bevosita telekommunikatsiya texnologiyalar yordamida muloqot o'rnatish imkonini beradi.

Ta'limning boshqa shakllari kabi masofaviy ta'limning yuqorida keltirilgan modellari ta'lim jarayonining quyidagi boshqa komponentlari asosida quriladi: fan mundarijasi bayoni, o'qituvchilar bilan o'zaro muloqot, amaliy topshiriqlarni

bajarish, nazorat tadbirlarini tashkil etish, o‘quv jarayonini tashkil qilish va boshqarish.

Ushbu modellarni amalga oshirish uchun masofaviy ta’limning quyidagi uchta texnologiyasidan foydalanish taxmin qilinadi.

- keys texnologiyasi: o‘quv metodik materiallar tuzilmalangan va mos ravishda maxsus majmuaga yig‘iladi (“keys”, “portfel”) o‘rganuvchiga mustaqil o‘rganish va keyinchalik maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan o‘qituvchilarga murojaat qilish uchun jo‘natiladi.
- tarmoq texnologisi (Internet yoki Intranet): o‘rganuvchilarni zarur o‘quv - uslubiy materiallar bilan ta’minlash, qabul qilish va uzatish, mustaqil ishlarni topshirish o‘qituvchi bilan elektron yoki boshqa vositalar orqali bog‘lanish imkonini beradi.
- TV texnologiya: televizion ma’ruzalar, video konferens bog‘lanishlar, o‘qituvchi konsultantlardan yashash joyiga qarab, telefon orqali va Internet tarmog‘i orqali ko‘rsatmalar olish.

MTT ni ishlab chiqarishning birinchi qadami ushbu konsepsiyaga suyanib yangi axborot o‘quv sohasini tuzish barcha takliflar ishlab chiquvchi MTT ga koordinatsion kengash (KK) muassasasi hisoblanadi.

MT barcha KK ning asosiy vazifalari quyidagilar:

- axborot o‘quv sohasi uchun talablar tuzish davlat standartlariga mos ravishda MT testlash tizimi va o‘quv dasturlari modellari.
- MT kurslari va dasturlaridan foydalanish sifatini ta’minlash nazorati va foydalanish uchun psixolog –pedagogik talablar ishlab chiqish;
- MTT inforotuzilishli loyixalar va o‘quv uslubiy majmualarini yaratish va tadbiq etishni o‘zaro muvofiqlashtirish.
- MTT kadrlari (xodimlar) ni atestatsiyalash prinsipi va mezonlarini ishlab chiqish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakalarini oshirish dasturini yaratish, koordinatsion kengashning takliflari asosida OTM (oliy ta’lim muassasalari) da MT markazlari yaratiladi. Ular masofaviy ta’lim jarayoni elektr o‘quv resurslarini yaratish va tadbiq etish ustida rahbarlik qiladilar.

Markazlarni yaratishda MT Respublikada to‘plangan barcha ilmiy uslubiy xodimlar va ishlab chiqarish potentsiallari axborot resurslari va texnologiyalari Ziyonet umumio‘quv tarmog‘i resurslari MT olib borish malakasi va oliy maktab tashkiliy tuzilmasiga ega bo‘lishi kerak.

O‘quv dasturlari, o‘quv –uslubiy qo‘llanmalar va masofaviy kurslarni yaratish OTM da keyinchalik o‘quv jarayoniga tadbiri bilan koordinatsion kengashda tasdiqlangandan so‘ng erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun // Xalq ta’limi. 1997. №5. S.4-16.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni. “Xalq so‘zi”. 11 fevral, 2004 y.
3. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 iyuldagi-117-son qarori.
4. «100 лет мот: Содействие сщциальной справедливости, продвижение достойного труда» XXXII международные Плехановские чтения Масква 2019 г. 1-2 февраль ст 106-108
5. “Интернаука” Научный журнал Часть 2. г Масква 2019 г ст 63-66
6. Colloquium-journal “Economics” Часть 6 Warshawa, Poland 2019 ст 6-8